
Kamchilik va muammolar aniqlanib, yechimi ham ta'minlanmoqda



Kamchilik va muammolar aniqlanib, yechimi ham ta'minlanmoqda

Ayni kunlarda Sux tumanida aholi muammo va kamchiliklarini o'rganish, aniqlangan kamchiliklarni yechilishida amaliy yordam ko'rsatish, taraqqiyot va rivojlanishga qaratilgan takliflarni bir aniq maqsad sari yo'naltirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Sektorlar kesimida tashkil etilgan fuqarolarni qabul qilish tizimi va ushbu tizimga jalb etilgan ishchi guruh a'zolari yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirishmoqda. Ishchi guro'hlari tarkibi bevosita sektor rahbarlari, sektor rahbarlarining o'rinbosarlari, sektorlarga birlashtirilgan tashkilot-korxonalar va muassasalar va eng asosiysi, Respublikadan tashrif buyurgan mutasaddi idoralar vakillaridan shakllantirilgan. Shuni alohida qayd qilish lozimki, tashkil etilayotgan bunday qabullar va o'rganishlardan aholi minnatdor, chunki murojaatlarning teng yarmi joyida hal etilayotir.

Qabullar ijobiy samara berayotganini aniq raqamlardan ham ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, tumanning 1-sektorida bir kunda 236 ta xonadon o'rganilib, 34 ta muammo aniqlandi va ulardan 9 tasi joyida hal etildi.

“Biz asosan sug'orish ishlari uchun mahalladan o'tadigan ariqdan foydalanamiz. Lekin, anchadan beri mahalla arig'i ta'mirga mo'htoj bo'lganligi bois, ehtiyoj yuzasidan Respublikadan kelgan ishchi guruh a'zolariga murojaat etgan edik va mana, bir kunda ishchi guruh ko'magi asosida mahalla arig'i ta'mirlandi. Biz bundan juda mamnun va minnatdormiz” - deya bizga yuzlanishdi Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Sanginboy Abdullaev va Zohirjon Ergashovlar.

Aynan Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'ini ikkinchi sektor hududida joylashgan. Ikkinchi sektor hududida ishchi guruh a'zolari 145 ta xonadon o'rganildi va 56 ta muammo aniqlandi. Aniq etilgan muammolardan 2 tasi joyida hal etib berildi.



Qayd etish lozimki, fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarning aksariyati joyida hal etilmoqda. Bu esa, quvonarli hol. Aholi dardiga malham bo'layotgan ishchi guruh a'zolaridan, shuningdek, sektor rahbarlaridan xalqimiz minnatdor.

Tumanning uchinchi sektori hududiga 5ta mahalla – Hushyor, Qizilqiyoq, Sharqobod, Qaqir, Sebzor mahallalari kiradi. Bu sektorda ishchi guruh nomiga 260 ta murojaat kelib tushgan. Aniqlangan 42 ta muammodan 16 tasi ijobiy hal etildi.

Hushyor mahallasi tumanning chekkasida – Qirg'iziston chegarasiga tutash hududda joylashgan. Bu hududdagi asosiy muammo – suv ta'minoti. Suv muammosi barobarida, hududda yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasi dolzarb sanaladi. Ishchi guruh tomonidan 3-sektor hududida 6 nafar yoshlar ish bilan ta'minlandi. Shuningdek, sektor hududida 104 nafar ishsiz fuqarolar ruyxati shakllantirilib, Sux tuman aholi bandligiga ko'maklashish markaziga taqdim etildi.

4-sektor hududi – davlat soliq inspeksiyasi hududi hisoblanadi. Bu hudduda ishchi guruh tomonidan 143 ta xonadon o'rganildi. Aniqlangan muammolarning umumiy soni 42 ta bo'lib, shundan 36 tasi joyida bartaraf etilib, 77 ta muammolar tegishli idoralarga yetkazilib, ijrosi nazoratga olindi.

Qayd etish lozimki, fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarning aksariyati joyida hal etilmoqda. Bu esa, quvonarli hol. Aholi dardiga malham bo'layotgan ishchi guruh a'zolaridan, shuningdek, sektor rahbarlaridan xalqimiz minnatdor.



Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, bu hududda kuni kecha tabiiy ofat - qattiq shamol tufayli Sux mahalla fuqarolar yig'ini hududida 28 ta, Mulgon mahallasidagi 6 ta xonadon zarar ko'rgan. Sux mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi xonadonlardan 25 tasi, Mulgondagi 6 ta uyning barchasi ta'mirlab berildi. Shundan, Sux mahalla fuqarolar yig'inidagi kam ta'minlangan Yunusova Subhinisoning uyi mahalla yordamida va sektor a'zolari ishtirokida hashar yo'li bilan to'liq ta'mirlandi.



ro'yixati ham shakllantirilib, ularga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatilmoqda. Aytish lozimki, barcha muammolarning yechimi qattiq nazoratga olinib, ijrosi ta'minlanmoqda.

Aholini muammo va kamchiliklar girdobidan xalos etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda ishchi guruh a'zolarining hissalarini cheksizligini qayd qilish lozim. Zotan, qilinayotgan va amalga oshirilayotgan barcha ishlar inson manfaatiga qaratilgani bilan ham ahamiyatlidir.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-06-07 19:17:02